

CHINGIZXON-IMPERIYA ASOSCHISI

O`ktamov Asadbek Ulug`bek o`g`li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tarix fakulteti
Sirtqi Tarix o`qitish metodikasi yo`nalishi 4 bosqich talabasi 402-guruh

Anotatsiya

Ushbu tezisda Chingizxon yurishlarini o`rganib, turli qabilalarni birlashtirishdan tortib geosiyosiy landshaftlarni shakllantirishgacha bo`lgan davrda Chingizxonning harbiy mahorati va ma`muriy yangiliklari kuchli Mo`g`ullar imperiyasiga asos solganligi haqidadir.

Kalit so`zlar: Chingizxon, Mo`g`ullar, turkiy qabilalar, imperiya, ko`chmanchi, Temuchin.

Chingizxon (ᠴᠢᠩᠭᠢᠰ ᠬᠠᠭᠠᠨ Чингис хаан) — asl ismi Temujin yoxud Temuchin bo`lib, taxminan 1155-1167 yillar o`rtasida, O`non daryosi yaqinidagi Delpun Bo`ldan mavzesida tug`ilgan.

Mo`g`ul qabilalari ittifoqi — mo`g`ullarning qiyotlar sardori Yasugay bahodirning Ulun xotundan tug`ilgan to`ng`ich farzandi. U Mo`g`ullar imperiyasining asoschisi va birinchi buyuk xoni (qooni), bir-biridan farq qilgan mo`g`ul va turkiy qabilalarni birlashtirgan. 1227-yilda vafotidan so`ng, imperiyaning merosxo`rlari uning birinchi xotini Bo`rtedan tug`ilgan farzandlari chingiziylar deb atalgan.

„Mo`g`ullarning maxfiy tarixi“ asarida aytilishicha, Chingizxonning ajdodi Bo`rte Chino bo`lib, u Goa Maral bilan qarindosh bo`lib, Burxon Xaldun tog`i yaqinidagi Xenteyda (markaziy-sharqiy Mo`g`uliston) istiqomat qilgan.¹

Rashiduddinining yozishicha, bu voqea VIII asr o`rtalarida sodir bo`lgan. Bo`rte Chinodan 2-9 avlodda Bata Sag`aan, Tamachi, Qorachar, Uujim Buural, Sali Xajau, Yeke Nyuden, Sim Sochi, Xarchu tug`ilgan.²

Borjigiday Mergen 10-avlodda tug`ilgan, u Mo`g`uljin goaga uylangan. Ulardan 11-avlodda shajara Torokoljin bahodir tomonidan davom ettirilib, u Borochein goaga uylangan, ulardan Dobun Mergen va Duva Soxor tug`ilgan. Dobun Mergenning xotini Alan goa bo`lib, uning uch xotinidan biri Bargujin goadan Xorilarday

¹ Сокровенное сказание монголов §8.17.02.2024

² Рашид ад-Дин. Сборник летописей / Перевод с персидского О.И. Смирновой, редакция профессора А.А. Семёнова. Москва-Ленинград: Издательство АН СССР. 1952. Т.1. Кн.2. С. 10



Mergendan tug‘ilgan qizi edi. Shu yo‘sinda Chingizxonning onasi Buryat Mo‘g‘ul tarmog‘idan biri bo‘lgan xo‘ri tumatlardan bo‘lgan.³

XII asr oxiri – XIII asr boshlariga kelganda bir-biriga raqib bo‘lgan mo‘g‘ullar, tatarlar, naymanlar, kerayitlar, merkitlar va boshqa qabilalar o‘rtasidagi sinfiy va siyosiy kurashlar natijasida ko‘chmanchi feodal oqsuyaklar manfaatini himoya qiladigan davlatning vujudga kelish jarayoni kuchaymoqda edi. Mirzo Ulug‘bekning „To‘rt ulus tarixi“ kitobida ko‘rsatilishicha, mo‘g‘ul sho‘basi 9 nafar bo‘lib, dastlabkisi Mo‘g‘ulxon, oxirgisi Elixondir. Tatarlar esa 8 shu‘baga bo‘linib, avvali Tatarxon bo‘lib, tatar maliklarining birinchisidir. Ularning har ikkisining ajdodi Nuh payg‘ambarga bog‘lanadi.⁴ 1155-yilda bir nechta qabilalar boshlig‘i bo‘lmish Yasug‘oy bahodir va Ulun xotun oilasida Temuchin tug‘ildi. Mirzo Ulug‘bekning yozishicha Yasug‘oy bahodir o‘z atrofidagi ulug‘ a‘yonlar bilan kengashib, ug‘lining ismini Temuchin deb qo‘ydi. Bunga sabab o‘sha vaqtlarda tatar qabilalarining qudratli podshohining ismi ham Temuchin edi. Go‘dak ulg‘ayganda Temuchindek qudratli shoh bo‘lsin, deb niyat qilindi. Abulg‘oziy Bahodirxon o‘zining „Shajarayi turk“ kitobida yozishicha „Temuchin Mo‘g‘ul yurtining Yilun-Yildiq degan joyida tug‘ildi. Tug‘ilganda bir qo‘li yumiq edi. Enaga xotin ochdi va unda bir pora uyushgan qon ko‘rdi. Tashqariga chiqib yoshi ulug‘larga aytganda ulardan biri bu o‘g‘lon ulug‘ podshoh bo‘lur, yer yuzini barchasini olur, ko‘p ellarni qatl va viloyatlarni vayron qilur“ — deb bashorat qildi. 13 yoshida otasidan yetim qolgan Chingizxon 27 yil davomida bir qancha urug‘ va qabilalarni tayjiutlar atrofida birlashtirish maqsadida harbiy harakatlar olib borgan.⁵ 1195—1204-yillarda Chingizxon keraitlar boshlig‘i Vanxon To‘g‘ril (O‘nixon) bilan ittifoqda merkit, nayman, kuralas, ikiras, durban, tatar va hokazo qabilalarni bo‘ysundiradi. Biroq, keyinchalik ular orasiga adovat tushgan. 1204-yil O‘nixon bilan bo‘lgan jangda g‘alaba qozongan Chingizxon xonlik taxtini egallaydi. 1206-yil mo‘g‘ul aslzodalari, no‘yonlari ishtirokida buyuk qurultoyda „chingiz“ (tengiz — dengiz, okean) unvoni bilan sarafroz etiladi (Ulug‘xon ma‘nosida) va barcha qabila, urug‘, elatlarning buyuk xoni deb e‘lon qilinadi. Davlatning ichki va tashqi siyosatini tartibga solishda Chingizxon tomonidan e‘lon qilingan qonunlar to‘plami — Yasoq muhim rol o‘ynaydi. Ming kishilik shaxsiy gvardiya hamda yuz ming jangchidan iborat otliq armiyani shakllantirgan Chingizxon Sibirdagi bir nechta

³ Хамутаев В. А. Национальный вопрос в Бурятии: 1980—2000-е гг. ИМБТ. 2008. С. 148. — [ISBN 978-5-7925-0273-4](https://doi.org/10.26907/2835-3730.2024.367.138-148).

⁴ Улуғбек Мирзо. Тўрт улус тарихи. Тошкент: Чўлпон, 1994. 352 б

⁵ https://uz.wikipedia.org/wiki/Chingizxon#cite_note-4 17.02.2024



qabila va elatlarni (1207), Shimoliy Xitoy (1211 — 15), Oʻrta Osiyoni (1219—1221), Xuroson, Eronni (1221—1224) oʻz tasarrufiga kiritadi. Moʻgʻullar tomonidan zabt etilgan hududlar vayron qilingan, aholisi qyrib tashlangan, qullikka mahkum etilgan.. Shimoliy Xitoydagi tangut qabilalarining Si-Sya davlati (X-XIII asrlar)ga qarshi yurish qilgan vaqtida Chingizxon ogʻir dard tufayli vafot etadi. Uni Moʻgʻulistondagi Burxon Xaldun togʻ etagida dafn etishadi. XII asr oxirlariga kelganda Moʻgʻulistonda yashovchi turli qabila va urugʻlar oʻrtasida siyosiy kurashlar avj olgan edi. Ularda ayniqsa urugʻ-aymoqchilik munosabatlari kuchli boʻlib, asosan koʻchmanchi chorvachilik, ovchilik va mol ayirboshlash bilan kun kechirar edilar. Ularning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot darajasi ham ancha past edi. Temuchin otadan 13 yoshida yetim qolgan paytda otasiga tobe boʻlgan koʻpgina qabilalar ularni tashlab ketdi va shu bois u keyinchalik koʻpincha murakkab hamda xavfli sharoitlarni boshidan kechirdi. Oʻzaro qabilaviy janglarda faol qatnashgan Temuchin keyinchalik oʻz atrofiga 13 ming kishilik lashkar ham toʻplay oldi. Soʻngra ularning soni ortib bordi. Tez orada Temuchin Nayman, Totor, Ungʻut, Oʻygʻur, Keroyit qabilalarini oʻziga buysundirishga erishadi va 1205-yillarga kelib u Moʻgʻuliston hududidagi eng qudratli hukmdorga aylandi. Rus muallifi M. Ivanin Temuchinni taʼriflab, oʻzining „Chingizxon va Amir Temur“ kitobida shunday jumalarni keltiradi: Chingizxon xonlik davrining boshlarida 13 ming atrofdagi oʻtov yoki oilaga ega boʻlgan boʻlsa, umrining oxirlarida turli tillarda soʻzlovchi va turli dinlarga mansub boʻlgan 720 ta xalq unga tobe edi. Uning oʻgʻillari va nabiralari hozirgi Xitoy, Hindistonning bir qismi, Quriya, butun Markaziy Osiyo, hozirgi Rossiyaning hamda Janubiy Osiyoning Hinddan Furotgacha boʻlgan deyarli barcha qismiga hukmronlik qilishgan, bu hududlar esa atigi 60-70 yil davomida bosib olingan.

1206-yilda Oʻnon daryosi buyida maxsus chaqirtirilgan qurultoyda Temuchin butun Moʻgʻulistonning Xoqoni deb eʼlon qilindi. Shu joyda unga Chingizxon (kuchli baquvvat degani) laqabi berildi.

Chingizxon shu tariqa Manjuriyadan to Irtishgacha Baykaldan Tangutgacha hududlarda koʻchib yuruvchi koʻp sonli qabilalarning yagona hukmdoriga aylandi. Davlatning diniy, siyosiy ijtimoiy faoliyatining barcha qirralari 1206-yildagi oʻsha yirik yigʻinda „Yaso“ qonunlari toʻplamida yanada asoslanib, mustahkamlandi.

Qoraqurum qalʼasi poytaxt qilib tanlandi.1207-1208-yillarda Enasoy (Yenisey) havzasi, Yettisuv viloyatining shimoliy qismi bosib olinib, u yerdagi uygʻurlar ham toʻliq buysundirildi. 1209-yilda Chingizxon Xitoyning shimoli-sharqiydagi Tangut mamlakatiga hujum qilib, katta oʻlja va koʻplab odamlarni qul qilib, Moʻgʻulistonga



olib ketdi. 1211-1215-yillar davomida esa avval Xitoyga hujum qilib, qudratli Szin armiyasiga qattiq zarbalar berdi, so'ngra esa Pekin shahrini ishg'ol qildi. Szin sulolasi ag'darilib, Shimoliy Xitoy Mo'g'ullar davlatiga qo'shib olindi. Mo'g'ulistonda qudratli davlatni tashkil qilgan Chingizxon o'z e'tiborini endi Markaziy Osiyo tomonga qarata boshladi va nihoyat 1218-1219-yillarda Yetisuvni, 1219-1221-yillarda Markaziy Osiyoni batamom o'z imperiyasining qaramog'iga qo'shib oldi. 1224-y Chingizxon Mo'g'ullar davlatini 4 o'g'li — Jo'ji, Chig'atoy, O'qtoy va Tulilarga taqsimlab bergan.⁶ Xulosa. Chingizxonning yurishlari uning g'ayrioddiy rahbarligi va dunyoga o'zgartiruvchi ta'siridan dalolat beradi. Turli xil ko'chmanchi qabilalardan birlashgan davlat tuzib, u nafaqat imperiya qurdi, balki global o'zaro ta'sirlar dinamikasini ham shakllantirdi. Uning zabt etishlari merosi asrlar davomida aks-sado berib, Chingizxonning harbiy dahlo va ta'siri imperiyasi chegaralaridan ancha uzoqqa cho'zilgan uzoqni ko'ra oladigan yetakchi sifatidagi tarixiy ahamiyatini ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сокровенное сказание монголов §8.
2. ↑ Рашид ад-Дин. Сборник летописей / Перевод с персидского О.И. Смирновой, редакция профессора А.А. Семёнова. Москва-Ленинград: Издательство АН СССР. 1952.
3. ↑ Хамутаев В. А. Национальный вопрос в Бурятии: 1980—2000-е гг. ИМБТ. 2008. — ISBN 978-5-7925-0273-4.
4. ↑ Улуғбек Мирзо. Тўрт улус тарихи. Тошкент: Чўлпон, 1994. 352 б.
5. Чингисхан. (Wayback Machine saytida 2022-07-07 sanasida arxivlangan) Hujjatli filmlar.
6. Коллекция 200 азиатских портретов Чингисхана (Wayback Machine saytida 2015-02-06 sanasida arxivlangan)
7. <https://uz.wikipedia.org>

⁶ <https://malumot.ru/chingizxon/> 17.02.2024

